

PEDAGOGIK TA'LIMDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK USULLARI

Erkinov Ozodbek Faxriddin o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti,
Pedagogika fakulteti, Pedagogika yo'nalishi talabasi
ozodbekerkiboyev205@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17406991>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishning pedagogik - psixologik usullarini tahlil qilingan. Kreativ fikrlash - bu yangicha g'oyalar va qarorlar yaratish qobiliyati bo'lib, zamonaviy ta'limda muhim o'rin tutadi. Maqolada kreativ fikrlashni shakllantirishda qo'llaniladigan turli pedagogik metodlar, jumladan muammoli o'qitish, loyihalashtirish, interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, psixologik usullar orqali o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish, motivatsiya oshirish hamda o'ziga xos fikrlash strategiyalarini rivojlantirish yo'llari ta'riflanadi. Tadqiqod natijalari ta'lim jarayonida kreativlikni faollashtirish va yaxshilashga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Pedagogik ta'lim, kreativ fikrlash, rivojlantirish usullari, pedagogic usullar, psixologik usullar, innovatsion ta'lim, axborot texnologiyalari, intellektual rivojlantirish, ta'lim samaradorligi.*

Kirish. Hozirgi kunda har bir soxa olimlarining asosiy etibori pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchining kreativ qobiliyatini oshirish va rivojlantirishga qaratilgan. Shunday ekan o'z-o'zidan zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangicha usullarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunda esa pedagogikaning yangi yo'nalishi ya'ni kreativ pedagogikaga murojaat qilamiz.

Psixologiya fanida ham kreativlikni shakllantirish masalalari alohida izchillik bilan o'rganiladi. Bu jarayon nafaqat tug'ma qobiliyatni aniqlash, balki, doimiy ravishda mashq qilish, ruhiy holatni boshqarish, motivatsiyani oshirish hamda ijodiy muhitni yaratish orqali amalga oshiriladi. Psixologik usullar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirishga, ularning emotsional va kognitiv resurslarini samarali yo'naltirishga xizmat qiladi. Bunday usullar vositasida inson o'zining ichki salohiyatini kashf etib, yangi g'oyalar yaratishda o'ziga xos yondashuv va usullarni qo'llash qobiliyatini oshiradi.

Pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchining ruhiy holati hamda xarakter xususiyatidan kelib chiqqan holda yondashuv tanlanadi hamda uning kelajakdagi mavqeyi shakllantiriladi. To'g'ri tanlangan yondashuvning natijasi esa yuqori bosqichga o'tgan shaxsning faoliyatida asta sekin namoyon bo'la boshlaydi. Shunday dasturlardan biri PISA dasturi hisoblanadi. Ushbu xalqaro tadqiqod o'quvchilarning fikrlash darajasini orttirish hamda shu kabi ilmiy tadqiqodlarning maktab faoliyati bilan uzviyligini baholaydi. Pisa tadqiqodlarining oldidagi asosiy vazifa ta'lim soxasi va pedagogikada katta natijalarga erisha oladigan kreativ fikrlash ko'nikmasiga tegishli xalqaro darajadagi ma'lumotlar berishdan iborat. Shuni takidlash kerakki; kreativ fikrlash ko'nikmasi ta'lim olish jarayonida shakllanishi, uning o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini o'qitish jarayonida kreativ fikrlashning imkoniyatlari aniq natijalarga olib keladi.

Kasbiy yetuklik inson ontogenezinining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishidan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishigacha bo'lgan

jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijyimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi – tug'ilishidan boshlab yo umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq. Ma'lumki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etiladi.

Kreativ fikrlashning psixologik asoslari. Kreativ fikrlash qobiliyati insonning intellektual va hissiy salohiyatiga bog'liq. Bu jarayon odatda ikki asosiy komponentlardan iborat bo'ladi. Kognitiv (fikrlashga oid) va emotsional (hissiy holat) jihatlar. Kognitiv jihatdan kreativ fikrlash, yangi g'oyalar ishlab chiqish, ularni tahlil qilish va sintez qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Emotsional jihat esa, shaxsning ijodiy ishga bo'lgan ichki motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va yengillikni sezishdan iborat.

Axborot texnologiyalari. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari (AT) har bir soxaning asosiy qismi hisoblanadi va ularning insonning fikrlash jarayonlariga tasiri tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, kreativ fikrlash – ya'ni yangicha, innovatsion qarorlar qabul qilish, muammolarga noodatiy yondashish qobiliyati – axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Birinchidan, axborot texnologiyalari kreativ fikrlashni rivojlantirishda yangi vositalar va imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, internet va digital platformalar orqali cheksiz malumot bazalariga, ilmiy tadqiqodlarga, san'at va dizayn ishlanmalariga kirish mumkin bo'ladi. Bu esa insonlarning keng dunyoqarashga ega bo'lishi, malumotlarni tahlil qilish va ularni yangi kontekstda tasavvur qilish kabi qobiliyatlarini oshiradi.

Ikkinchidan, axborot texnologiyalari hamkorlikni kuchaytiradi va kollektiv kreativlikni rag'batlantiradi. Onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va hamkorlik dasturlari yordamida dunyoning turli burchaklarida yashovchi odamlar birgalikda ishlashadi, fikr almashadi va yangi g'oyalarni shakllantiradi. Bu esa turli madaniyat va fikrlash uslublarining to'qnashuvi natijasida yanada boy va kutilmagan innovatsion yechimlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Uchinchidan, axborot texnologiyalari kreativlikni oshirishda shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kreativ fikrlash ko'nikmalarini oshirish uchun mo'ljallangan onlayn kurslar, treninglar va interaktiv o'quv materiallari kompyuter va mobil qurilmalar orqali osonlik bilan mavjud bo'ladi. Bu esa o'quvchilar va mutaxassislarining o'z-o'zini rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi va ular doimiy ravishda yangi yondashuvlar bilan tanishib boradi.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining tasiri faqat ijobiy emasligini ham unutmaslik kerak. Yuqori texnologiyalarga qaramlik, malumotlar ortidan tez-tez chalg'ish kreativ fikrlashning chuqurlashishiga salbiy tasir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun axborot texnologiyalarini ongli va samarali foydalanish kreativlikni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Darslarda interfaol metodlar, muammoni hal etish texnikalari, ijodiy mashg'ulotlar va yondashuvlar orqali o'quvchilarning

fikrlash doirasi va ijodiy qobiliyatlari sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, pedagoglarning psixologik bilimlari va didaktik ko'nikmalarini muntazam oshirib borish ham kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi. Shu tarzda, ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish nafaqat o'quvchilarning shaxsiy va intellektual salohiyatini to'liq ochishga, balki ularning hayotga moslashuvchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Kelgusida pedagogik-psixologik yondashuvlarni yanada takomillashtirish va ularni amaliyotga yanada keng joriy etish ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga katta hissa qo'shish imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jalolov, J. (2019). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Xodjayev, N. (2021). Kreativ ta'lim va zamonaviy o'qitish metodlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Guilford, J. P. (1967). The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill.
4. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Personnel Press.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. OECD. (2019). PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing.
7. Qodirov, A. & Tursunova, D. (2020). Psixologik yondashuvlar orqali o'quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish. "Pedagogika" jurnali, №3.
8. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman.